

## SHE'RIYATDA POETIK OBRAZNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI

**Zebo Zokirovna SABIROVA**

O'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Toshkent, O'zbekiston

## ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ФУНКЦИЯ ПОЭТИЧЕСКОГО ОБРАЗА В ПОЭЗИИ

**Зебо Зокировна САБИРОВА**

Преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

## THE ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTION OF A POETIC IMAGE IN POETRY

**Zebo Zokirovna SABIROVA**

Teacher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan [zebonur2017@gmail.com](mailto:zebonur2017@gmail.com)

UDC (УЎК, УДК): 82-14: 821.512.133

**For citation (iqtibos keltirish uchun,  
для цитирования):**

Sabirova Z. Z. She'riyatda poetik obrazning badiiy estetik vazifasi. // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2022. — № 1 (41). — B. 169-179.

<https://doi.org/10.36078/1649689617>

**Received:** December 25, 2021

**Accepted:** February 17, 2022

**Published:** February 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Annotatsiya.** Maqolada Zebo Mirzo she'riyati, mustaqillik davridagi o'zbek she'riyatining yangilangan obrazli tabiati, ifoda shakli, lirik qahramonning kongil kechinmalari, ruhiyati she'rda aks ettirilgan ehtiyojlari haqida so'z boradi. Shoir Z. Mirzo she'riyatining asosiy ramzlari — sevgi, yomg'ir, nur, lahza, yurak, orzu, baxt, tun, xazon tasvirlarining yangicha ifodasi badiiy talqin qilingan. Obrazning ta'sirchanligi muhim sanalib, nazmiy va nasriy asarda chuqur ma'no ifodalashi kerak. His-tuyg'u, kechinma, ruhiy holat bilan poetik fikr mutanosibli badiiy adabiyotda obraz yaratishning asosiy shaklidir. Obrazlilik — so'z orqali tasvir yaratish san'ati. Obrazli ifoda qahramonlar, voqealarni o'quvchi ko'z oldida gavdalandirib, ularning ruhiy kechinmalarini o'z boshidan kechirgandek taassurot uyg'otadi.

**Kalit so'zlar:** davr she'riyati; tasvir; tarjimon; badiiy va estetik fikrlash; lirik qahramon; sevgi; yomg'ir; nur; lahza; yurak; orzu; baxt; tun.

**Аннотация.** В статье дается характеристика поэзии Зебо Мирзо, рассматривается обновленная образная природа узбекской поэзии периода независимости, формы выражения, эмоциональные переживания лирического героя, отраженные в стихотворении. Мирзо выражает свои чувства в новых формах через образы любви, дождя, света, мгновения, сердца, сна, счастья, ночи, траура, которые являются главными символами в ее поэзии. Важно, чтобы образ был влиятельным и значимым, будь то в стихах или прозе, он должен придавать художественному произведению глубокий смысл. Гармония эмоций, переживаний, поэтической мысли с разными настроениями — основная форма образотворчества в

художественной литературе. Образность — это искусство создания образа с помощью слов. Образное выражение создает впечатление, когда главные герои воплощают события на глазах читателя и переживают собственные чувства. Произведение, насыщенное сильной образностью, не теряет своей художественной ценности и тогда, когда оно создано без метафор.

**Ключевые слова:** историческая поэзия; образ; переводчик; художественно-эстетическое мышление; лирический герой; любовь; дождь; свет; миг; сердце; мечта; счастье; ночь.

**Abstract.** This article briefly analyzes the poetry of Zebo Mirzo, the renewed figurative nature of Uzbek poetry of the independence period, the form of expression, the emotional experiences of the lyrical hero and the needs of the psyche reflected in the poem. Mirza expresses his experiences in new expressions through the images of love, rain, light, moment, heart, dream, happiness, night and mourning, which are the main symbols of poetry. It is important that the image is influential and significant; whether in poetry or prose, it should add in-depth meaning to the work of art. The harmony of emotion, experience and poetic thought with different moods is the main form of image creation in fiction. Imagery is the art of creating an image through words. The figurative expression gives the impression that the protagonists embody the events in the eyes of the reader and experience their own spiritual experiences. A work full of strong imagery does not lose its artistic value even when it is out of metaphors.

**Keywords:** period poetry; image; translator; artistic and aesthetic thinking; lyrical hero; love; rain; light; moment; heart; dream; happiness; night.

**Kirish.** Adabiyot asrlar davomida xalq his-tuyg'ularining ifodachisi, ko'ngil ko'zgusi, dard-u quvonchini kuylash, satrlarda muhrlashdek adabiy-estetik vazifani bajarib kelmoqda. Shu o'rinda adabiyot san'atning bir turi sifatida ayni shu asrlar davomida sayqallanib, rivojlanib kelmoqda. Ulug'bek Hamdamning e'tiroficha: "...Endi shoir o'z nigohini tashqaridan — atrofda yuz berayotgan olamshumul voqea-hodisalardan uzib, o'z miskin ko'ngliga qaratdi va uni "tarjima" etishga kirishdi" (2, 75). Bu davrda nafaqat insonning yashash tarzi, muhiti, fikrlash jarayoni, his-tuyg'ulari ham erkinlikka yuz tutdi. Badiiy-estetik qarashlarning ildizlari mumtoz adabiyot tomirlaridan yiroqlashmagan holda yangiliklarga yaqinlashdi.

**Asosiy qism.** Badiiy tafakkur mudom yangilanishga ehtiyojmanddir. "Chinakam lirika, — deb yozadi Gegel, — boshqa har qanday haqiqiy poeziya kabi inson yuragining chinakam mazmunini ifoda qilib berishi kerak. Biroq hamma narsa va hatto eng xolis, eng predmetli va eng moddiy hodisalar ham lirik mundarija kasb etarkan, shaxsan his qilingan, ko'ngul ko'zgusida yo'g'rilgan, tasavvur qilingan va o'ylangan holda gavdalanmog'i lozim" (1, 504). Zamonaviy o'zbek she'riyatida shoiralarning ham munosib o'rni bo'lib, XX asr ikkinchi yarmida Oydin Hojjeva, Gulchehra Nur, Halima Xudoyberdieva, Halima Ahmedova, Qutlibeka, Istiqlol ilk yillaridan to bugunga qadar ijod qilayotgan Farida Afro'z, Zebo Mirzo, Xosiyat Rustamova, Nodira Ofoqova, Guljamol Asqarova, Oydinniso, Mehrinoz Abbosova o'ziga xos individuallikda ijod qilishyapti. Ular ham san'atlari orqali hayot haqiqatlariga javob izladilar. Ijod va talqinda yangiliklar yarata oldilar. "Mantiqiy mushohadadan

qochish, g'alatilikka, so'z ma'nolari va chuqur shakliy o'yinlarga intilish hozirgi she'riyatimiz qiyofasiga aylandi. Odatga muvofiq xulosa chiqarish zamonaviy she'rlar uchun eskilik sanalib qoldi. Modern shoirlar mavjud badiiy qoliplarga tushib qolishdan, ifoda yakrangligidan qochmoqdalar. Bu hol turli betakror obrazlar va kutilmagan tashbehlar yaratilishiga olib kelmoqda" (18, 11), deb ta'kidlaydi M.Yo'ldasheva. Global dunyo adabiyotining bir qismi sanalgan o'zbek she'riyati ham jahon talablariga xos ko'rinish kasb etmoqda. She'riyat ruhiy dadillik, ulug'vorlik, muhabbat, qurbonlik va go'zallik dunyosida yashaydi. Globallashuv zamirida oniy lahzalarda yuzaga keladigan muvaffaqiyat, intiqom va murakkab insoniy munosabatlar turadi. Bu zamonaviy hayotning paradoksidir. She'riyat go'zallikni his qilishdir.

She'riyatda (umuman, san'at sohasida) yaratilgan obrazlar mohiyatini tadqiqatish shoir (san'atkor)ning voqelik bilan munosabatiga oydinlik kiritadi. V.Xalizevobrazning ikki xilini ajratadi: anglash fenomeni sifatidagi obraz va tasavvurning hissiy (ko'rish va eshitish vositasida) gavdalanishi orqali hosil bo'luvchi obraz. A.Potebnya esa «Fikr va til» nomli tadqiqotida obrazni «tasavvurning qayta ishlanishi» deb ataydi. V.Xalizev «obraz»ni san'at nazariyasi uchun eng o'rinli asos ekanini qayd etadi.

1-jadval.

<b>Obraz –</b>	o'zida aql va his-tuyg'uni birlashtiradi
<b>Ratsional obraz –</b>	dunyoni badiiy bilish vositasi
<b>Emotsional obraz –</b>	ijodkorning hissiy munosabati
<b>Obrazda metaforiklik –</b>	bir narsa mohiyatini boshqa bir narsa orqali ochishga intilish

Yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qisqacha izoh bersak, poetik obraz she'riy tafakkur mazmunini aks ettirishning asosiy shaklidir. Obraz san'atkor tomonidan reallikning qayta idrok etilgan va muayyan maqsadni amalga oshirish yo'lida badiiy sayqallangan, ijodkor ideali bilan shakllantirilgan fikr natijasidir. Tuyg'u, ruhiy kechinma bilan poetik fikr uyg'unligi lirik obraz yaratishning asosiy sharti sanaladi. Poetik obraz so'zning turli ma'no tovlanishlari tufayli shakllanadi.

Shoirning har bir yaratgan asarida teran mushohada, falsafiy ruh aks etmas ekan, u she'rxon yuragidan joyegallamaydi. Shoir yaratayotgan obraz, qo'llayotgan mubolag'a, tashbehlarini o'quvchi ongiga, qalbiga oddiylikdan murakkablikkacha, murakkablikdan oddiylikkacha bo'lgan masofani osonlik bilan anglatsa, go'zal ifodallasagina, she'rning umri uzoq bo'ladi. Ijodkor har bir so'zni mahorat bilan qo'llab, so'zning ma'no qirralarini qanchalik mohirona ochsa, so'z shunchalik teran anglashiladi. Satrlarda dard aks etayotgan bo'lsa-da, uning jozibasi shu dard kabi abadiy tuyuladi va qalblarga shu qadar yaqin keladiki, yuraklarga singgib, shu darddan zavq olish hissini uyg'otadi. Go'zallik soddalikkadir, deyilsa ham, aslida shu soddalik ortida bizga — qalb ko'zimizga ozuqa bo'la oladigan chin mo'jiza yashiringandir.

Adabiyotshunoslikda ilmiy tadqiqot, izlanishlar olib borishning eng maqbul usuli adabiy asarlarni mustaqil tahlil qilish va sharhlashdir. She'riyatning ma'no o'lchovini o'rganar ekanmiz, obraz, metafora, ramz alohida ta'kidlanishi kerak bo'lgan

unsurlardandir. Obraz, metafora, ramzning tartibi shuni ko'rsatadiki, she'riyat nazariyasi nuqtai nazaridan muhim hisoblangan ikkita xususiyat birlashadi. Ulardan biri hissiyotlar, estetik elementlar, she'riyatning san'atning boshqa sohalari, jumladan, musiqa va rassomchilik bilan bog'liq xususiyatlari yoki hissiyotlarning kombinatsiyasi. She'riyat so'zlarni mutlaqo yangi usullar bilan birlashtirib, ularni predmet va belgi sifatida qo'llaydi Darhaqiqat, har qanday obraz dunyoning ba'zi bir jihatlarida bizning ongimizda aks etishi va ular o'rtasidagi aloqalarning o'rnatilishi, namoyon bo'lishidir.

Boshqacha aytganda, tashqi dunyodan nimani anglayotganiga, uning faolligiga e'tiborni jamlashdir. Obraz so'zlar orqali amalga oshiriladigan hodisa sanaladi. Chunki olamdagi jamiki mavjudotlar va tushunchalarni ajratish hamda ularga nom berish so'zlar bilan amalga oshiriladi. Xuddi shu narsa she'riyat uchun ham amal qiladi. She'riy tafakkurda esa so'zlarning vazifasi o'zgaradi. She'riyatdagi so'zlarning eng muhim vazifasi yangi obrazlar yaratish, hissiyot va fikrlarni mavhumlashtirish orqali tafakkurni charxlashdir. Aniqrog'i, koinotda mavjud bo'lgan mavjudot va narsalarga shoirning hissiy va fikrlash muhitida shakllangan yangi o'lchovlar berish va obrazlar yaratishdir. Chunki tasvir — hislar, taassurotlar va kechinmalarni ongdagi tasvirlarga aylantirish va sezgi assotsiatsiyaga asoslangan boylik bilan reallikka mos kelishdir.

Ustoz Abdulla Qahhor "Poeziya — yuksak san'at" maqolasida yozganidek, "She'ning mo'jizalik sirlaridan voqif bo'lish, bu sirlarni jilovlash har kimga ham muassar bo'lavermaydi. Bunga erishish uchun zehn, sabr va mehnatdan boshqa yana nimadir kerak" (11.26). O'sha "kerak nimadir", nazarimizda, ilohiy ne'mat — badiiy kashf etish salohiyatidir. Har qanday adabiy tur singari, she'riyatni tahlil qilish va o'rganish ob'ekti ham inson obrazidir.

Taniqli adabiyotshunos B. Sarimsoqov istiora-metaforaning muayyan narsa va hodisa tushunchasining estetik baholovchi obrazga aylantiruvchi ko'chim ekanini ta'kidlab yozadi: "Istiorada doim ikki ma'no yashirin bo'ladi. Bu ma'nolardan biri, ya'ni ko'chma ma'no badiiy obrazning asosidir. Agar shu ma'no yetakchilik qilib, ma'no (denotativ ma'no) unutilsa, so'z ramzga aylanadi" (17, 54). Tasvirning o'ziga xosligi, uning assotsiatsiya yoki sezgi asosidagi kuchi onda tasvirlarni yaratishga tayanadi. Bu shoirning tashqi dunyoni anglashi va uning shoirona qarashlari bilan bog'liq. Masalan, "Yomg'ir — bulutlardan diametri 0,5 mmdan 6–7 mmmgacha bo'lgan suv tomchilari holida yog'adigan yog'in. Qoplama bulutli yomg'ir hamda jala yomg'irga bo'linadi..." — bu ratsional qarash mahsulidir. Bu yomg'ir va uning yog'ishini belgilaydigan umumiy xususiyatlar to'plamidir. Bu yerda so'zlar ajratish va nomlash vazifasidan tashqari ishlatilmadi, ular tasvirni shakllantirmadi va tilning aloqa sohasida qoldi, bu ko'rinish tasvirlanayotgan narsaga yangi o'lchov olib kelmadi; u ta'rifdan oshib, tasvirga aylanmadi.

*Yomg'ir yog'ib chiqdi tun bo'yi  
Tong oqardi, tinmadi yomg'ir.  
Buzilgandek osmonning uyi —  
Yerga qarab yig'ladi og'ir.*

*Men xonamga kirgayman alhol,  
Yuragimda ko'hna anduhlar.  
Derazamga urilar shamol,  
Qaydasan sen? Qayda ul ruhlar?.. (15, 130)*

satrlarida yomg'ir tuyg'ularning badiiy timsoliga aylangan. Shoir eshitish, ko'rish va teginish hislarini faollashtiradigan, quyosh chiqishini tong oqarishiga, osmonning uyi buzilganidan yerga qarab og'ir yig'layotgan, halovat izlayotgan anduhli ko'ngil kabi obrazlarni chizadi. She'r satrlarining boyligi uning tarkibidagi tasvirlardan kelib chiqadi. Shoir yomg'ir yog'ishini tasvirlayotganda badiiy til xususiyatlaridan foydalandi. U ko'rsatishga harakat qilayotgan mavjudlikning ma'lum, umumiy xususiyatlarini o'zgartiradi. Ushbu shakllanish uni ramzlar asosida fikrlashga va mavjud narsalarni boyitishga olib keladi. Oddiy, stereotipik tasvir yaxshi his-tuyg'ularni uyg'otadigan taassurot bermaydi. Nozik his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan hisni berish tasvirning shaxsiy kechinmalar ifodasi, tafsilotlarga boyligi va konnotatsiya kuchiga bog'liq. Rus tanqidchilaridan biri she'r tarkibidagi obrazning o'rni haqidagi fikrlarini bayon qilar ekan, she'rning o'ziga xos tafakkur uslubi ekanligini, ushbu shakl tafakkurda ma'lum bir yengillikni beradi, deb ta'kidlaydi.

Zebo Mirzo ijodiga nazar soladigan bo'lsak, uning ijodi bugungi o'zbek she'riyatining yorqin namunasidir. Shoir she'rlarida yetakchi mavzu ishq mavzusidir. Uning ishq shunchaki zaminiy muhabbat emas, balki ilohiyotga yaqin bo'lgan ishqdir. Shuning uchun ham shoir she'rlaridagi lirik qahramon Haq oshig'i va u o'z holini, ishqini Yaratganning inoyati, deya qabul qiladi. Oshiq mana shu ishq sabab Allohdan najot kutadi, gunohlaridan o'tishini so'raydi, panoh tilaydi.

“Guliston” jurnali 2014-yil 6-sonida “Ijodkorni qo'liga qalam olishga undagan narsa nima?” degan savol bilan barcha ijodkorlarga murojaat qildi. Bunga ikki taniqli adib Nazar Eshonqul va Abduqayim Yo'ldashev javob berdilar. Jurnalning 2015-yil 1-sonida she'riyat muxlilariga yaxshi tanish bo'lgan Zebo Mirzo yuqoridagi savolga “Men nima uchun yozaman?” nomli maqolasi orqali javob berdi. Shoir maqolasida quyidagicha to'xtaladi: “Yozmaslikni bilmaganim uchun... Daf'atan shu fikr «yarq» etib o'tdi. So'rash shartmi, hammasi ayon-ku! Javob savol ichida. Biroq nimasi ayon? Meni kimdir bergan savollar emas, o'zimga o'zim bergan savollar ko'proq qiynaydi... ehtimol, o'sha tubsiz savollarga javob izlaganim bois yozarman. Ehtimol, yozmaslikni uddalay olmaganim uchun?..

So'z keladi... So'zlar ham osmondan tushadi, agar ko'nglingiz osmonga yetgan bo'lsa... Ijod bu Iloh bilan sirlashuvdir. She'r bu tazarru, ko'z yoshi, munojot va, hatto, isyon ham bo'lishi mumkin, ko'nglidan yengilgan inson uchun. Biroq bu hol shu lahzada, shu soniyada Iloh va Inson qalbi o'rtasidagi hol, sir. Uni o'zgalar o'qishi shart emas!”(5, 1-son). Bu fikrlarda aks etayotgan so'zlar ilohiylashtirilganday tuyiladi. So'zning qudrati shu darajadaki, u insonni, nafaqat o'ziga yaqinlashtiradi, balki o'zligini tan oldiradi. Zebo Mirzo fikrlarini davom ettirar ekan shunday deydi: “Bu yo'l... Yaratganga yo'l. Kelish, qaytish, yetish va yana nimalardir deb atamang bu talpinishning ruhi bitta: bu shunday holatkim, bu hol ichiga Uning O'zidan boshqa sig'maydi. «Men vaqt ichida, vaqt mening ichim-da», deydi Boyazid Bistomiy” (5, 1-son).



Ko'ngil — sirlar uchun eng maqbul joy. Sir oshkoralikdan ko'ra pinhon bo'lgani afzal. Shuning uchun ham u — sir. Uni bildirishdan ko'ra saqlashning yuki og'irroq. Shoira bu haqda alohida to'xtalib o'tadi: "Shu paytgacha men aytish muhim deb bilardim. Bugun angladimki, aytmalik qudrati undan ham kuchliroq ekan! Sir — bu Qurbiyat..." Xalloy shoir edi, shu bois u yengildi. Aytolmaslikning yukini ko'tara olmaganidan emas, shunchaki aytish zavqi, ruhining hayrati, xoslik hislati teran donolik sukutidan ustun keldi.

Aslida yozuvchi — musavvir. Inson ruhiyatining musavviri. She'r tili esa ramzlar, timsollar tili. Shoira o'z fikrlarini davom ettirar ekan she'r haqida to'xtaladi va unga quyidagicha izohlaydi: "She'r mening yagona maqsadim emas... Ammo she'r — menga berilgan dardlarni So'zda yashab o'tmoq imkoni... "Ijod insonni komillikka eltadi..." degandi men sevgan adib... Men esa uning qudratini ko'rgim keladi". Ma'lumki, tasavvuf she'riyatida ishq nafsni yengish quroli bo'lib, u ikki xil: majoziy (insoniy muhabbat), boqiy va o'lmas ishq (insonning Allohga ishq). Ishq, ko'pincha, may, sharob timsollari orqali ham ifodalanadi. Ilohiy ishq "ilohiy irodaning hokim bo'lishidir". Shoira lirik qahramoni insoniy muhabbatdan ilohiy muhabbatni topganini tan oladi. Aslida ilohiy ishq insoniyat qonida mavjud, faqat uni anglamoq uchun majoziy ishq turtki bo'ladi. Lirik qahramon shu qadar ishqqa tashnaki, u yori uchun "Xudo haqqi sevdim, Xudo haqqi kam Uni deb qanchalar to'kilgan bo'lsam" (8, 10), — deydi. Zebo Mirzoning "Ajr" to'plamiga kirgan she'rlarda tasavvuf mohiyatini chuqurroq anglash, diniy tushunchalar, ilohiy tushunchalarga sezgirlik bilan yondashish, hissiy sarkashlikni falsafiy mushohadalar bilan almashtirishga urinish ko'rinadi:

*Me'roj — vaslgohing desa Haq,  
Ruh qushin uchirib arshi a'loga,  
Tovonimga ko'ngil ko'zini bog'lab  
Jism olovini bosib o'tardim... (6, 26)*

Muhabbat so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli qarashlar mavjud. Ba'zilar ushbu so'zni "muhoibat" so'zidan olingan deyishadi. Boshqa ba'zilar esa "muhabbat" so'zining "hubb" (xum) so'zidan kelib chiqqanini taxmin qilishadi. Ularning ta'kidlashlaricha, xum to'lganda unda boshqa narsa uchun joy qolmaganidek, ko'ngil ham muhabbat bilan to'lganidan so'ng, unda sevmagan kishisiga joy qolmagay. Yana boshqa ba'zilar "muhabbat" so'zining "habb" (don) so'zidan kelib chiqqani to'g'risida fikr bildirishadi. Jumladan, "habb" so'zi to'g'risida har bir mag'zli narsaning doni bor deyдилar. Shundan kelib chiqib, yurakning o'rtasini "habbat ul-qalb" (yurak doni), deyдилar va do'st (sevgili, suyukli, mahbub, ma'shuq) o'sha joydan o'tsa, o'shani "muhabbat" deb atayдилar (8, 6). Shundan ayon bo'ladiki, muhabbat — Alloh sevgan bandasiga nasib bo'lguvchi tuyg'u. Bandasini sevgan Allohni sevadi:

*Ishq hukmini bilsang-da egam,  
Iztiroblar yongan dil bilan  
Men sevaman do'zaxingni ham  
Men sevaman... sevgingni egam (8, 98).*

Muhabbat maskan etgan joy bu — qalb iqrorxona, iqror esa Tangriga yaqinlashtiruvchi ilk qadamdir.

*Ishq nadir?  
Jahannam olovin ichib,  
Malak ko'zlaridan tomgan tomchi nur.  
Ishq bu ikki dunyo bahridan kechib,  
Tangri huzurida yig'layotgan Hur!* (8, 105)

Uning ko'ngli sevgani uchun o'zini aybdor deb bilmaydi, uni sevmaganlar aybdor.

*Xiyonat tunlari haydalib, bedil,  
Tavallo chog'ida berilgan bo'lsam.  
Xudodan tanho ishq tilanib yuz yil  
Bir olov bo'sadan tirilgan bo'lsam,  
Gunohkor emasman kuyganim uchun,  
Meni deb yonmagan dillar gunohkor* (7, 78).

Shoiraning "Tun malikasi", "Ajr", "Nur kukunlari", "Ishq" to'plamlariga kiritilgan she'rlar jamlanmasida ifodalangan muhabbat o'quvchini ilohiy ishq sari yetaklaydi. Shoir she'rlarida yomg'ir va nur timsollari bir-biriga mushtaraklashadi. Nurlar yomg'iri go'yo dilning zangini yuvadi va nigohdagi darparda — ko'ngil dardini tinglaydi:

*Yomg'ir yog'ar nurlar yomg'iri,  
Tutolmaysan hovuchlaringni.  
Hovuchingda gullar atri bor,  
Tortib qo'yma darpardalarni.  
Yomg'ir yog'ar  
Nurlar yomg'iri...* (8, 35)

Z.Mirzoning ijodida baxt deb qaralgan dard alqanadi. Mayli, u og'riqli bo'lsa ham: "Yuragimga yaqin kelgin BAXT!", deydi shoir. Shoir she'rlarida yurak oldindan g'oyibona ko'rish xususiyatiga ham ega. Yurakda ibtido olgan "ishq" atalmish tuyg'uning turfaligi, uning "Yuragimga bosib uxlasam", "yuragimda yig'layotgan kim?", "ising yuragimga urilgan xanjar...", "yuragingga yetarmi yo'lim?..", yuragimga yurib kirasiz", "yuragimda ishq qo'ng'irog'i..." kabi satrlarda dard va iztirob bilan yonayotgan intihosi Z. Mirzo ijodida yanada yorqinroq jonlanadi. Uning o'zi aytganidek u "jannatiy azob"dir. E'tibor qaratadigan bo'lsak, shoiraning ijodiy yo'nalishi, o'ziga xosliklari, izlanishlarining serqirraligi barchaning nazariga birdek loyiq bo'la oldi. Ayniqsa, uning ijodida yurak tasviri g'amgin, ahvoli tang, azobdan yonayotgan holda ifoda etiladi:

*Sen kelmading,  
Biroq bu gal ham...  
Men kunning qon yuziga boqib —  
G'ijimlanib otilgan xatday...  
Yuragimni yubordim yoqib* (7, 11).

Ispan faylasuflaridan biri shunday degan edi: "Agar shoir nigohini bir yuz sakson gradusga bursa, uning ko'zi yuragiga tushadi"(2, 76). Demak mustaqillik davri she'riyati inson yuragining ifodachisiga aylandi. Chunki shoir bu davrda zo'rma-zo'raki yozishdan, dabdababozlikdan

yiroqlashdi va endi u ham o‘z qalbiga — yuragiga quloq osdi, uni to‘kib soldi. Shoir o‘z yuragini makon etdi: “Ko‘rgim kelmas yaxshi-yomonni, Bo‘g‘ilaman, yetmas nafasim. Gul davralar meniki emas, Mening uyim — Ko‘ngil qafasim...(8, 33). Shoir dardlaridan, dardlaridan charchagan damda hech kimga malol kelmaydi. U endi ko‘ngliga yo‘l oladi. Shoir shunchaki: “Ko‘milaman yuragimga jim...(8, 33), deydi, xolos. Bu damda u faqat o‘zini emas, balki Hazrati Insonga tanish bo‘lgan “yolg‘izlikni sog‘inish” hissini aytmoqda. Bu tuyg‘u — san‘at ahlining hamrohi. Yuragida dard oshsa ham, quvonch toshsa ham yolg‘iz. U barini kimgadir emas, nimagadir to‘kkisi keladi:

*Xayr dema, ko‘zlarimda qol,  
Qara, diydam to‘la sog‘inch — may.  
Umrinni ol, Azobimni ol,  
Qalbingni ber, bir marta o‘pay! (7, 55)*

Butun umrini, qalbini inson yuragiga baxsh etgan shoir IshQ atalmish tuyg‘uning sururini, dard-u quvonchlarini, azob-uqubatlarini Xudoga yetish yo‘lida sinov deb bildi. Shu o‘rinda mumtoz adabiyotdagi majoziy ishqdan haqiqiy ishqqa erishish g‘oyasini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘ngilga IshQ atalmish ilohiy surur in‘om etilmas ekan, u inson chinakam quvonch-u rostakam dard, haqiqiy hayot kechmishlarini bilmay, ko‘rmay, anglamay o‘tadi:

*Ey Xudo, bir kuni senga yetarman,  
Sezyapman ruhimda nimadir yangi.  
Ko‘ksimga yulduzlar sho‘r yoshi tomda,  
Ko‘ksimda ishq jangi  
Nurlar jarangi(7, 29).*

Yoki quyidagi misralarda yangicha qarashlarni kuzatamiz:

*Vujudimni yemirmasa g‘am,  
Yuragimni bilmas eding ham.  
Men sevmasam, sevilarmiding,  
Ey ko‘nglimning egasi — Odam! (8, 53)*

Yaratilgan ijod namunasi qaysi yo‘nalishda u xoh an‘anaviy, xoh modern shaklda ifodalanganida emas, balki u rostakam san‘at asari darajasiga chiqqanligi yoki chiqmaganligi bilan belgilanadi. Z.Mirzo she‘rlarida Xudoga tavallo qiladi: “Ishq ne — olislardan bo‘ylab o‘tgan nur Kim ko‘rdi, ko‘rmadi, jon talohidir. Kimki sevsa, o‘shal Xudoning yori, Sevgisiz yurak bu dunyo toshidir” (8, 40).

Shoir she‘rlarida tasavvufiy g‘oyalarning ham aynan yurak obrazi orqali naqadar teran va go‘zal ifodalar bilan ochib berilganligini ko‘ramiz.



Quyidagi misralar ulug' mutasavvuf Jaloliddin Rumiyning "Ko'zni yumgil, ko'zga aylansin ko'ngil" hikmatiga hamohangdir:

*Ishq yog'dudir yurakka oqqan,  
Qaydan bilsin, zulmat sochganlar?  
Bizni anglar, bizni ko'rarlar.  
Ko'zni yumib, dilni ochganlar! (8, 30).*

She'r shunchaki yozilmaydi, uning taqdiri Jaloliddin Rumiyni ta'rificha, Isoning tug'ilishi kabidir. U g'oyibdan ato etiladi va she'r buyuk tuyg'ular ifodasi uchun xizmat qiladi. She'rda shoira o'z "men"ini ochib, nozik qalb bilan ulkan ishqqa to'qnash kelishi ma'rifiy-irfoniy ma'no-mazmun kasb etadi:

*Olis-olis edi osmonim,  
Olis-olis orzum edingiz.  
Yorug'-yorug' osmonlarimdan  
Yuragimga kirib keldingiz (8, 38).*

O'zbekiston xalq shoiri Normurod Narzullaev Zebo Mirzo ijodi haqida to'xtalar ekan shunday deydi: "Zebo Mirzo she'rlarida musavvirova ruh bor, dard bor, olov bor, so'zlarini ushlab ko'rasiz, haroratini his qilasiz, ranglaridan hayratlanasiz. Va ko'nglingizga kirib borayotgan TIRIK SO'ZNING tovushlarini eshitasiz. So'z ichida yonayotgan Ayol qalbining iztiroblari so'zni-da yondiradi. Siz bu she'rlar bilan azoblanasiz, yuksalasiz va poklanasiz. U sizni buyuk bir ishq qoshiga yetaklaydi, bir lahza bo'lsa-da ko'ngil bilan yashash baxtini taqdim etadi"(7, 3). Inson o'zi ruhan ko'rgan, yashagan va his qilgan hayot mo'jizalarini, holat va manzaralarini bir umr unutmaydi. Uni ba'zan so'zda, ba'zan ranglarda ifodalaydi. Ko'rish zavqi ba'zan ko'rsatish istagini yaratadi. Ammo buning qanchalik og'irligi faqat ko'ngilgagina ayondir, ishqqa ayondir... Uning bu ayonligi ham bir najotday goho: Meni barbod qilgan shu ishqqa qasam: Xudo haqqi sevdim!Xudo haqqi kam — Uni deb qanchalar to'kilgan bo'lsam! (8,10)

"Agar musavvir bo'lsam, eng avvalo, tushlarimni chizardim... ", deydi shoira. "Men rassom emasman. Men chizgan chizgilar yuksak san'at asarlari yoki badiiy yetuk ijod namunalari olgan taassurotlarim ham emas... Qo'llarim xotirasida qolgan, bolalik qiziqishlarimning hamrohi qalamimdan to'kilganlari — bu bir holat. Iloh va inson o'rtasida kechayotgan ichkin va iztirobli ruhiy holatlarning bir ko'rinish, xolos" (8, 123). Shoira she'riyatida ruhiyat ifodasi hayot, umr falsafasining bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Ruh va vujud uyg'unligidan yaratilgan inson bularning qay biri uchun yashamog'i kerak? Ruh yuksalishi uchun intilmog'i kerakmi yoki vujud ehtiyojlari uchun umrguzaronlik o'tkazishi lozimmi? Shoira o'z-o'ziga savol berib, ruh azizligini anglab yetar ekan, umr

so'nggida o'sha ruh o'z pokligini qay darajada aniqlab olishi naqadar og'irligini his qiladi.

*(Nega o'xshamaymiz o'z ruhimizga?)  
Nega bu ruhlardan judomiz minba'd?  
Nega ozod Ruhlar, Ozoda ruhlar  
Faqat tushimizdan o'tishar uchib,  
Mangulik umrini lahzada yashab  
Bizning ayro-ayro vujudimizga  
Iztirob va Ishqning olovin tashlab? (8, 109)*

Chindan ham shoira ijodidagi she'rlar garchand g'amli, tushkun bo'lsa ham, u o'zining sehrli olamiga ega. Bu olamning nomi "KO'NGIL". Uning egasi esa har kimning o'zidir. Obraz ko'pincha she'riyat bilan bog'liq bo'lsa-da, bu badiiy asar namunalarning barcha turlarida faol bo'lgan samarali adabiy vositadir.

**Xulosa.** Ijodkorlar obrazlardan o'quvchilar bilan o'zlarining fikrlari va yaratayotgan asarlari chuqurroq esda qolarli darajada yetkazish vositasi sifatida foydalanadilar. Tasvirlar o'quvchiga yozuvchi tasvirlab berayotgan narsaning vizual tasviri va hissiy taassurotlarini hamda tavsifga biriktirilgan hissiyotlarni shakllantirishga yordam beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гегель. Эстетика. Т.3. — М., 1971. — 504 с.
2. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. — Тошкент: Фан, 2007. — 75 б.
3. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. — 76 б.
4. Ҳайитов А. 90-йиллар ўзбек лирикасида анъана ва шаклий изланишлар: Филол. фан. ном... дисс автореф. — Тошкент, 2004. — 126 б.
5. Мирзо З. Мен нима учун ёзаман// Гулистон. 2015. — 1-сон. — Б. 39-40.
6. Мирзоева З. Ажр. — Тошкент: Ёзувчи, 1997. — 90 б.
7. Мирзоева З. Нур кукунлари. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2004. — 87 б.
8. Мирзоева З. Ишқ. — Тошкент: Академнашр, 2011. — 93 б.
9. Мухтор А. Шеър — шоир виждони. — Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. — 266 б.
10. Мустақиллик даври адабиёти. Адабий-танқидий мақолалар. — Тошкент: Фафур Ғулум номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2006. — 321 б.
11. Қаҳҳорова К. Чорак аср ҳамнафас. — Тошкент: Ёш гвардия, 1987. — 26 б.
12. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslar. — Toshkent. Navoiy universiteti. 2018. — 475 б.
13. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. — T., 2010. — 384 б.
14. Раҳимов К. Ишқ ва муҳаббат таърифи// Шарқ юлдузи, 2014. — № 6. — Б. 164–183.
15. Рауф Парфи. Сайланма. — Тошкент, Академнашр, 2013. 130 б.
16. Sabirova Z. Zebo Mirzo ijodida yurak obrazi talqinlari// Ilm sarchashmalari. 2017, 4-son. — Б. 85–89.
17. Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. — Тошкент, 2004. — 54 б.

18. Ёўлдошева М. Ҳозирги ўзбек модерн шеърятининг асосий хусусиятлари. Филол фанл номз... дисс автореферати. —Тошкент, 2004. — 155 б.

#### References

1. Gegel'. *Estetika* (Aesthetics), vol.3, Moscow, 1971, 504 p.
2. Hamdamov U. *Yangilanish ehtiyezi* (Need for update), Tashkent: Fan, 2007, 75 p.
3. Hamdamov U. *Badiii tafakkur tadriizi* (The evolution of artistic thinking), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2002, 76 p.
4. Haiitov A. *90-iillar ўzbek lirikasida an"ana va shaklii izlanishlar* (Tradition and formal research in Uzbek lyrics of the 90s), candidate's thesis, Toshkent, 2004, 126 p.
5. Mirzo Z. *Guliston*. 2015. No.1, pp. 39-40.
6. Mirzoeva Z. *Azhr* (Ajr), Tashkent: Ezuvchi, 1997, 90 p.
7. Mirzoeva Z. *Nur kukunlari* (Light powder), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2004, 87 p.
8. Mirzoeva Z. *Ishq* (Love), Tashkent: Akademnashr, 2011, 93 p.
9. Mukhtor A. *She"r — shoir vizhdoni* (Poetry is the conscience of the poet), Tashkent: Mumtoz suz, 2011, 266 p.
10. *Mustaqillik davri adabietii. Adabii-tanqidii maqolalar* (Literature of the independence period. Literary-critical articles), Tashkent: Fafur Fulom nomidagi nashriet-matbaa izhodii uii, 2006, 321 p.
11. Qaxxorova K. *Chorak asr xamnafas* (A quarter of a century has passed), Tashkent: Esh gvardiya, 1987, 26 p.
12. Quronov D. *Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslar* (Fundamentals of Literary Theory), Tashkent. Navoiy universiteti, 2018, 475 p.
13. Quronov D. *Adabiyotshunoslik lug'ati* (Dictionary of Literary Studies), Tashkent, 2010, 384 p.
14. Raximov K. *Sharq yulduzi*, 2014. No.6, pp. 164-183.
15. Rauf Parfi. *Sailanma* (Selection), Tashkent, Akademnashr, 2013, 130 p.
16. Sabirova Z. *Ilm sarchashmalari*, 2017, No. 4, pp. 85-89.
17. Sarimsoqov B. *Badiilik asoslari va mezonlari* (Fundamentals and criteria of art), Tashkent, 2004, 54 p.
18. Iuldosheva M. *Ќozirgi uzbek modern she"riyatining asosii khususiyatlari* (The main features of modern Uzbek modern poetry), Extended abstract of candidate's thesis, Tashkent, 2004, 155 p.